

## **BOSHLANG‘ICH SINFDA MATNLI IDROKINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.**

*Abera Sharopovna Qahhorova*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti*  
*qaxxorovaabera@gmail.com +998946455801*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli idrokini rivojlantirish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Matn bilan ishlash, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy fikrlash qobiliyati hamda nutqiy faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy metod va texnologiyalarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, interfaol usullar, multimedia vositalari, didaktik o‘yinlar va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. Maqola boshlang‘ich ta’lim jarayonida matnni ongli o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni hamda ularni qo‘llashning metodik tavsiyalari bilan boyitilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, matnli idrok, pedagogik texnologiyalar, ongli o‘qish, tafakkurni rivojlantirish, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, multimedia vositalari, didaktik o‘yinlar, nutqiy faoliyat.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatimizga yangi qiyofa bag‘ishladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining ilk kunlaridanoq ta’lim va ilm-fanga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish va yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada ta’lim jarayoniga yangi g‘oya va texnologiyalar kirib keldi, boshlang‘ich ta’lim tizimi ham yangicha bosqichga ko‘tarildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli idrokini rivojlantirish – bugungi ta’lim islohotlarining muhim tarkibiy qismidir. Chunki matnni o‘qish va tushunish, asosiy g‘oyani ajratib olish va uni tahlil qilish bolalarning kelajakda bilimlarni chuqur o‘zlashtirishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli davlatimiz rahbari yoshlarning zamonaviy bilim egallashlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda.

Boshlang‘ich sinflarda matnli idrokni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish – nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodni hur fikrli, bilimli va komil insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli idrokini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki bolalarning matnni o‘qish, uni tushunish, asosiy g‘oyani ajratib olish va mazmuni yuzasidan fikr bildirish ko‘nikmalari kelgusi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Shu bois uzlusiz ta’limni innovatsion

rivojlantirishda eng avvalo boshlang‘ich ta’lim tizimida matnli idrokni shakllantirishga zamonaviy yondashuv zarurdir. Ularni matndan cheklash emas, balki o‘qilgan matnni to‘g‘ri idrok etishga, mazmunini tahlil qilishga, qahramonlar xatti-harakatlariga baho berishga va xulosa chiqarishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat pedagoglarning metodik mahorati, balki ota-onalarning ham maqsadli munosabatlari muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab matn ustida mustaqil ishslashga, asosiy mazmunni ajratib olishga, turli topshiriqlar orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qilishga o‘rgatilsa, bu ularning tafakkuri, nutqiy faoliyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi davrda turli audio resurslar, multimediali mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar va interfaol metodlardan foydalanish matnli idrokni shakllantirishda samarali natija beradi. Eng asosiysi, o‘qituvchi har bir mashg‘ulotni ijodiy tashkil eta bilsa, o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishi ortadi va ular mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi.

Matnli idrokni rivojlantirish – nafaqat ta’lim jarayonining asosiy talabi, balki bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida intellektual avlodni tarbiyalashning muhim shartidir.

Dunyoda turli millat va elatlar istiqomat qilsa-da, ularning barchasi farzandlari kelajagi haqida qayg‘uradi. Ularga yaxshi ta’lim-tarbiya berish, kelajakda komil inson sifatida shakllanishini ta’minalash umumiyligi maqsaddir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ham yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, ularni bilimli va mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning matnli idrokini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir. Chunki matnni tushunish, asosiy g‘oyani anglash va uni tahlil qilish bolalarning keyingi ta’lim bosqichidagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yosh avlod tarbiyasi barcha davrlarda dolzarb masala bo‘lib kelgan, ammo bugungi kunda u yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bolalarda matn ustida ishslash, mutolaa qilish, mazmunni anglash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy yondashuvni talab etadi.

Bu jarayonda pedagogik texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Sinfda erkinlik muhitini yaratish, o‘quvchining o‘z fikrini erkin ifoda etishiga sharoit berish, elektron kutubxonalar va multimediali resurslardan foydalanish matnli idrokni rivojlantirishga katta hissa qo‘sadi. Didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar va zamonaviy texnik vositalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otadi, ularda mustaqil fikrleshish va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha

komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, ilm-fan va ma’rifatning taraqqiyotida kutubxona, kitob va mutolaaning o‘rni beqiyosdir.

Boshlang‘ich ta’lim – bu ta’lim tizimining eng muhim va asosiy bosqichi bo‘lib, unda bolaning ta’limiy faoliyati yetakchi faoliyatga aylanadi. Shu davrda bilimlar tizimi, shaxsiy rivojlanish va universal faoliyat usullarining dastlabki shakllanish jarayoni yuz beradi. Bu esa o‘quvchining keyingi o‘rta maktab bosqichida muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi hamda butun hayoti davomida bilim olish istagini va qobiliyatini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning matnli idrokini rivojlantirish, ya’ni matnni ongli o‘qish, mazmunini anglash va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish ham muhim vazifa sanaladi. Shu orqali bolalarda nafaqat savodxonlik, balki milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va axloqiy tarbiya uyg‘onadi.

So‘nggi yillarda ta’lim sifatiga bo‘lgan talab oshib, bu jarayonda o‘quvchilarning matnli idrokini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Chunki matnni tushunish, tahlil qilish va mazmunini anglash o‘quvchilarning nafaqat savodxonlik darajasini, balki tafakkurini, ijodiy qobiliyatini va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda matnli idrokni rivojlantirish quyidagi asosiy maqsadlarga xizmat qiladi:

- matnni ongli va to‘g‘ri o‘qish, asosiy fikrni ajrata olish;
- o‘qilgan matndan mantiqiy xulosa chiqarish va shaxsiy munosabat bildirish;
- o‘quvchining nutqiy faolligini oshirish va tafakkurni kengaytirish;
- o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Shuningdek, matnli idrokni rivojlantirishda quyidagi prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;
- o‘quv jarayonida differensial va individual yondashuvni qo‘llash;
- ta’lim jarayonini interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va izlanish ruhini qo‘llab-quvvatlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli idrokini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki ularni hayotga ongli, mustaqil va faol shaxs sifatida tayyorlashni ta’minlaydi.

Bolalarning quvvati, eslab qolish va anglash qobiliyatini erta yoshdan rivojlantirish muhimdir. Buning uchun ularni mumtoz adabiyot namunalarini o‘qish va

yod olishga, she'r va dostonlar bilan tanishtirishga yo'naltirish zarur. Bu nafaqat ularning idrokini boyitadi, balki tafakkurini kengaytirib, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi.

Mazkur jarayonda pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metodlar, multimediali resurslar, elektron kutubxonalar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda mutolaa ko'nikmasi va matn ustida ishlash malakasi samarali shakllantiriladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasi yuqori bo'lishi zarur. Chunki o'qituvchi kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lmasa, raqamli imkoniyatlardan foydalana olmasa, kelajak avlodni adabiyot va kitoblar dunyosiga oshno etish mushkul bo'ladi.

"Matnli idrokini rivojlantirish" deganda shuni tushunish mumkin:

Idrok – bu insonning atrof-muhitdan yoki ma'lumotdan ongli ravishda xabardor bo'lishi, uni qabul qilish jarayoni.

Matnli idrok – o'quvchining yozma yoki og'zaki berilgan matnni o'qib, tushunib, mazmunini anglash, asosiy g'oyani ajrata olish, matn qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni topa olish qobiliyatini.

Matnli idrokini rivojlantirish – bu o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish, matndan asosiy fikrni ajratib olish, mantiqiy xulosalar chiqarish, qahramonlar harakatini tahlil qilish, voqealar ketma-ketligini tushunish, matnni qayta hikoya qilish va unga shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonidir.

Ya'ni, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida:

ongli o'qish malakasini,  
fikrlash va tafakkur qilish qobiliyatini,  
nutqiy rivojlanishni,  
ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qisqacha qilib aytganda: matnli idrokini rivojlantirish – bu matnni faqat o'qish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va hayotiy tajribaga bog'lash jarayonidir.

O'quvchilarining matnli idrokini rivojlantirish deganda quyidagilar tushuniladi:

Matnli idrok — bu bolaning berilgan matnni to'g'ri o'qishi, tushunishi, mazmunini anglash, asosiy g'oyani ajratib olish, mantiqiy bog'liqlikni ko'ra olish va uni og'zaki yoki yozma ravishda qayta ifodalay olish qobiliyatidir.

Rivojlantirish — o'quvchilarni asta-sekin matn ustida mustaqil ishlashga, mazmunni tahlil qilishga, xulosa chiqarishga va fikr bildirishga o'rgatish jarayonidir.

Bu jarayon orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari:

matnni ongli va ifodali o'qish,  
asosiy mazmunni tushunish,

qahramonlar xatti-harakatlarini baholash,  
ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Ya’ni, bu atama bolalarning matnga bo‘lgan tushunish, anglash va tahlil qilish salohiyatini shakllantirishni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli idrokini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash — ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish va ularning qalbini insoniy ezguliklar bilan boyitishda hal qiluvchi omildir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 23.09.2020
2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning nazariya soslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –TDPU. 2004. - 258 b.
3. Asqarova Manzura Avazbekovna “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish”. p.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini oli unun yozilgan dissertatsiyasi. 13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Namangan. -2020. 185-b.
4. Oybek Ortiqov, and Murodova Maqsuda. “Talabalar axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari” *Interpretation and researches* 2.18 (2024): 33-40.
5. Olimov, Shirinboy, Oybek Artikov, and Maksuda Murodova. "The use of national values in forming the ecological world view of students." *BIO Web of Conferences*. Vol. 141. EDP Sciences, 2024.
6. Qahhorova, Abera. "Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi." *Problems and solutions of scientific and innovative research* 1.2 (2024): 47-50.